



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil  
yanvar-iyun*





# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2023- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **2836,4** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,0** ming kishiga yoki **1,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1027,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1808,9** ming kishi (**63,8 %**)ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 141,1 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 198,7 ming kishi.

### Doimiy aholi soni



### Tabiiy o'sish



### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**1027,6** ming kishi

#### Qishloq joylarda




**1808,9** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- iyul holatiga

#### Erkaklar




**1434,8** ming kishi

#### Ayollar



**1401,6** ming kishi





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2771,2</b>	<b>2836,4</b>	<b>102,4</b>
Termiz sh.	192,4	198,7	103,3
tumanlar:			
Oltinsoy	185,8	189,7	102,1
Angor	138,8	141,9	102,2
Bandixon	79,7	81,7	102,5
Boysun	120,6	123,0	102
Muzrabot	148,5	151,6	102,1
Denov	404,2	414,4	102,5
Jarqo'rg'on	229,3	234,9	102,4
Qumqo'rg'on	246,1	251,6	102,2
Qiziriq	119,9	122,5	102,2
Sariosiyo	219,7	224,6	102,2
Termiz	81,3	83,4	102,6
Uzun	181,0	185,0	102,2
Sherobod	203,8	208,1	102,1
Sho'rchi	220,1	225,3	102,4

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

*1- iyul holatiga, ming kishi*



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 414,4 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 251,6 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 234,9 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 81,7 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 4,9 ming kishi (1,2 %) va Qumqo'rg'on tumanida 2,4 ming kishini (1,0 %), Jarqo'rg'on tumanida 2,7 ming kishi (1,2 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,0 ming kishini (1,2 %) tashkil etdi.


## Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumotlar



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- iyul holatiga, ming kishi



## Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-iyun)

	kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	36 612	38 343	1 731	26,8	27,4
O'lganlar	6 467	6 743	276	4,7	4,8
Nikohlar	9 574	8 571	-1 003	7,0	6,1
Ajralishlar	1 346	1 472	126	1,0	1,1
Ko'chib kelganlar	4 944	5 265	321	3,6	3,8
Ko'chib ketganlar	7 107	6 898	-209	5,2	4,9

**Tug'ilish.** 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 38,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 27,4 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 26,8 promille bo'lgan).

*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

**Qiz bola:**

**18,4 ming kishi**



**O'g'il bola:**

**19,9 ming kishi**




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 38,3 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar 19,9 ming kishini, qiz bolalar 18,4 ming kishini tashkil etadi.

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, (1- iyul holatiga, kishi)

	2022- yil	2023- yil*	O‘sinh sur‘ati %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>36 612</b>	<b>38 343</b>	<b>104,7</b>
Termiz sh.	2461	2865	116,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	2384	2390	100,3
Angor	1833	1899	103,6
Bandixon	1161	1237	106,5
Boysun	1466	1477	100,8
Muzrabot	1886	1783	94,5
Denov	5436	6183	113,7
Jarqo‘rg‘on	3284	3535	107,6
Qumqo‘rg‘on	3390	3129	92,3
Qiziriq	1609	1828	113,6
Sariosiyo	2651	2676	100,9
Termiz	1176	1260	107,1
Uzun	2319	2339	100,9
Sherobod	2581	2701	104,6
Sho'rchi	2975	3041	102,2

## Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2023- yil yanvar-iyun)




**Tabiiy o‘sinh.** 2023- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o‘shishi 31,6 ming kishini (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 30,1 ming kishi) tashkil etdi.



## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 2023- yil yanvar-iyun

**Jamiga nisbatan ulushi,  
% da**



- Ba'zi yuqumli va parazitlar kasalliklar:
- Xafvli o'sma kasalliklar
- Qon aylanish tizimining kasalliklari
- Nafas olish kasalliklari
- Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari
- Boshqa kasalliklar
- Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar

**Vafot etganlar.** 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etdi, 2022- yilning mos davriga 4,7 promille bo'lgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 46,7 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 3,4 % i xafvli o'simalardan, 3,6 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,4 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 22,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,5 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 21,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**  
(1- iyul holatiga)

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>6 467</b>	<b>6 743</b>	<b>276</b>
Termiz sh.	423	534	111
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	399	479	80
Angor	421	395	-26
Bandixon	158	223	65
Boysun	271	302	31
Muzrabot	264	352	88
Denov	779	884	105
Jarqo'rg'on	563	595	32
Qumqo'rg'on	628	512	-116
Qiziriq	354	389	35
Sariosiyo	400	377	-23
Termiz	188	195	7
Uzun	537	426	-111
Sherobod	588	532	-56
Sho'rchi	494	548	54



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-iyun)**



Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 574</b>	<b>8 571</b>	<b>-1 003</b>
Termiz sh.	689	594	-95
tumanlar:			
Oltinsoy	535	581	46
Angor	520	423	-97
Bandixon	290	211	-79
Boysun	367	290	-77
Muzrabot	512	473	-39
Denov	1358	1163	-195
Jarqo'rg'on	987	856	-131
Qumqo'rg'on	850	752	-98
Qiziriq	404	395	-9
Sariosiyo	767	723	-44
Termiz	283	294	11
Uzun	587	507	-80
Sherobod	618	558	-60
Sho'rchi	807	751	-56



## Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2023- yil yanvar-iyun)




**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi  
(yanvar-iyun)**

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 346</b>	<b>1 472</b>	<b>126</b>
Termiz sh.	141	159	18
tumanlar:			
Oltinsoy	54	84	30
Angor	74	72	-2
Bandixon	29	35	6
Boysun	46	67	21
Muzrabot	77	92	15
Denov	154	243	89
Jarqo'rg'on	124	100	-24
Qumqo'rg'on	101	106	5
Qiziriq	49	48	-1
Sariosiyo	136	114	-22
Termiz	53	55	2
Uzun	116	90	-26
Sherobod	110	112	2
Sho'rchi	82	95	13

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan eng ko'p o'sish Oltinsoy tumani (0,3 promillega), Boysun tumani (0,3 promillega), Denov tumani (0,4 promillega) ro'y berdi. Aksincha kamayish Uzun tumanida (-0,3 promillega) tumanida kuzatildi.


## Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2023- yil yanvar-iyun kishi, promille)



## Aholi migratsiyasi (kishi)

2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,6 ming kishi bo'lib, 2022- yilning mos davrida minus 2,2 ming kishi bo'lgan.

**2022- yil**  
yanvar- iyun



**2023- yil**  
yanvar- iyun





## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni**  
(2023- yil yanvar-iyun uchun, kishi)

Hududlar	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldos
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5 265</b>	<b>6 898</b>	<b>-1 633</b>
Termiz sh.	1692	940	752
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	134	283	-149
Angor	359	327	32
Bandixon	126	185	-59
Boysun	192	353	-161
Muzrabot	194	412	-218
Denov	357	730	-373
Jarqo'rg'on	300	492	-192
Qumqo'rg'on	295	529	-234
Qiziriq	217	413	-196
Sariosiyo	185	426	-241
Termiz	580	511	69
Uzun	167	403	-236
Sherobod	272	479	-207
Sho'rchi	195	415	-149





# SURXONDARYO VILOYATI

## STATISTIKA BOSHQARMASI

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
tel: (76) 225-65-60